



## 2020- yilning yanvar-oktabr oylari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida jami **3103,3** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **100,1 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni,  
2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2,3 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 mingtaga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **101,5 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **59,9 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **115,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,9 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **114,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **31,2 %**) o'sishidir.



**Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.11.2019- yil	01.11.2020- yil	
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>2152</b>	<b>2291</b>	<b>106,5</b>
Nukus sh.	1113	1149	103,2
tumanlar			
Amudaryo	62	60	96,8
Beruniy	106	110	103,8
Bo'zotov	-	18	-
Qorao`zak	34	39	114,7
Kegeyli	49	52	106,1
Qo'ng'iro't	85	100	117,6
Qonliko'l	38	35	92,1
Mo'ynoq	34	45	132,4
Nukus	84	93	110,7
Taxiatosh	61	76	124,6
Taxtako'pir	25	24	96,0
To'rtko'l	162	183	113,0
Xo'jayli	101	117	115,8
Chimboy	50	48	96,0
Shumanoy	43	42	97,7
Ellikqal`a	105	100	95,2


**Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan  
01.11.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



**Ma'lumot uchun:** Respublikada soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Nukus sh. (50,1 %), To'rtko'l tumani (8,0 %) va Xo'jayli (5,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **238,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **77,5 %** ga bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **2,2 %** punktga kamayib, **7,7 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qo'ng'iro't tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining **33,1** % i yoki 2019- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan **55,3** %), Taxiato'sh tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining **27,9** % i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **62,0** %) va Kegeyli tumani (jami qurilish ishlari hajmining **19,5** % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **103,9** %) ga to'g'ri keldi.




### Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 76,2 % i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **7,8 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **111,3 %** ni tashkil etgan holda **2366,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **16,1 %** ni tashkil etdi yoki **499,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **74,9 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **158,0** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2945,3** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **5,1 %** va **94,9 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**







## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi 2020- yil yanvar-oktabr

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 60,8 % i yoki **1886,4** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**60,8 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **130,2** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **54,7 %** ni tashkil etdi.

**54,7 %**

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1312,4** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **55,5 %** ni tashkil etdi.

**55,5 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **443,8** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **88,9 %** ni tashkil etdi.

**88,9 %**








2020- yilning yanvar-oktabr oylarida  
shahar va tumanlar kesimidagi qurilish ishlari

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	3103,3	100,1	100,0
<b>Nukus sh.</b>	1049,1	95,5	33,8
<b>tumanlar:</b>			
Amudaryo	123,1	114,1	4,0
Beruniy	192,0	104,1	6,2
Bo'zotov	22,3	233,8	0,7
Qorao`zak	40,9	100,3	1,3
Kegeyli	65,0	104,9	2,1
Qo'ng'iro't	296,0	100,2	9,5
Qonliko'l	71,4	104,2	2,3
Mo'ynoq	141,7	100,3	4,6
Nukus	164,6	100,3	5,3
Taxiatosh	144,5	100,2	4,7
Taxtako'pir	76,7	117,8	2,5
To'rtko'l	289,8	104,3	9,3
Xo'jayli	199,0	92,4	6,4
Chimboy	46,8	100,7	1,5
Shumanoy	39,5	100,6	1,3
Ellikqal`a	140,9	100,0	4,5

Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari

ulushi, % da



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi



## Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **3,1 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,5 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **6,4 %** punktga ko'payib, **73,4 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **8,9 %** punktga kamayib, **23,5 %** ni tashkil etdi.

*ulushi, % da*






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **20,1 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **8,9 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **79,9 %** (**8,9 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.







## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **13,3 %** punktga kamaydi va **15,3 %** ni tashkil etdi. Qolgan **84,7 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **13,3 %** punktga ko'paydi.

ulushi, % da






**Korxonalar turlari bo'yicha shahar va tumanlar  
kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-oktabr oylarida**

*mlrd. so'm*

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>3103,3</b>	<b>238,1</b>	<b>2366,0</b>	<b>499,2</b>
<b>Nukus sh. tumanlar</b>	<b>1049,1</b>	<b>37,1</b>	<b>972,1</b>	<b>39,9</b>
<b>Amudaryo</b>	<b>123,1</b>	<b>9,0</b>	<b>60,7</b>	<b>53,4</b>
<b>Beruniy</b>	<b>192,0</b>	<b>-</b>	<b>97,5</b>	<b>94,5</b>
<b>Bo'zotov</b>	<b>22,3</b>	<b>3,8</b>	<b>15,0</b>	<b>3,5</b>
<b>Qoraol'moq</b>	<b>40,9</b>	<b>0,2</b>	<b>33,8</b>	<b>6,9</b>
<b>Kegeyli</b>	<b>65,0</b>	<b>12,7</b>	<b>41,3</b>	<b>11,0</b>
<b>Qo'ng'iroq</b>	<b>296,0</b>	<b>98,0</b>	<b>174,4</b>	<b>23,6</b>
<b>Qonliqo'l</b>	<b>71,4</b>	<b>0,1</b>	<b>41,9</b>	<b>29,4</b>
<b>Mo'ynoq</b>	<b>141,7</b>	<b>0,1</b>	<b>129,6</b>	<b>12,0</b>
<b>Nukus</b>	<b>164,6</b>	<b>0,6</b>	<b>120,0</b>	<b>44,0</b>
<b>Taxiatosh</b>	<b>144,5</b>	<b>40,3</b>	<b>83,3</b>	<b>20,9</b>
<b>Taxtakopir</b>	<b>76,7</b>	<b>0,5</b>	<b>70,7</b>	<b>5,5</b>
<b>To'rtko'l</b>	<b>289,8</b>	<b>1,1</b>	<b>202,6</b>	<b>86,1</b>
<b>Xo'jayli</b>	<b>199,0</b>	<b>19,3</b>	<b>156,1</b>	<b>23,6</b>
<b>Chimboy</b>	<b>46,8</b>	<b>3,8</b>	<b>34,5</b>	<b>8,5</b>
<b>Shumanoy</b>	<b>39,5</b>	<b>-</b>	<b>30,3</b>	<b>9,2</b>
<b>Ellikqal'a</b>	<b>140,9</b>	<b>11,5</b>	<b>102,2</b>	<b>27,2</b>

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida  
shahar va tumanlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'm



**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Nukus sh. (1049,1 mlrd. so'm) Qo'ng'iro't (296,0 mlrd. so'm), To'rtko'l (289,8 mlrd. so'm) va Xo'jayli (199,0 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.





# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika  
boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi

Aloqa telefoni: (61) 224-92-14

(61) 222-75-91